

10. Herrman G. Lapis lazuli: the early phases of its trade // Iraq. 1968. Vol. 30. – P. 21-57; Сарианиди В.И. О великом лазуритовом пути на древнем Востоке // КСИА. – М.: 1968. Вып. 114. – С. 3-9.
11. Мавлонов У. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари. – Ташкент: Akademiya, 2008. 56-57-б.
12. Сарианиди В.И. Задолго до Заратуштры. – М.: Старый сад, 2010. – С. 16.
13. Сарианиди В.И. Археологические доказательства протозороастризма в Бактрии и Маргиане // Тр. Маргианской археологической экспедиции. – М.: 2008. Т. 2. – С. 9-27; Хуф Д., Шайдуллаев Ш. Некоторые результаты работ узбекско-германской экспедиции на городище Джаркутан // ИМКУ. – Самарканд: 1999.
14. Кузьмина Е.Е. Происхождение индоиранцев в свете новейших археологических данных // Этнические проблемы истории Центральной Азии в древности. – М.: «Наука», 1981. – С. 103.
15. Массон В.М. Расцвет и упадок земледельцев юго-запада // Средняя Азия в эпоху камня и бронзы. – М- Л.: «Наука», 1966. – С. 151-156; ўша муаллиф. Алтын-Депе // Тр. ЮТАКЭ. – Л.: «Наука», 1981. Т. XVIII.
16. Бокиев А., Шайдуллаев А., Йўлдошева З. Ох цивилизацияси. – Тошкент: “Yanginashr”, 2015.
17. Ртвеладзе Э.В. Цивилизации, государства, культуры Центральной Азии. – Ташкент: 2005. – С. 32-33.
18. Сагдуллаев А.С. Актуальные проблемы древней истории Центральной Азии // Формирование историко-культурных областей в Центральной Азии и проблемы этнической географии. – Ташкент: 2018.

РЕЗЮМЕ

Маколада Марказий Осиёнинг бронза давридаги этномаданий жараёнлари ва ижтимоий-иқтисодий тизими таҳлил этилади. Ўрта Осиёга амалга оширилган миграциялар босқичларга ажратилган.

РЕЗЮМЕ

В статье анализируются этнокультурные процессы и социально-экономический строй Центральной Азии в эпоху бронзы. Выделены этапы миграций, осуществлённые в Среднюю Азию.

SUMMARY

The article analyzes the ethnocultural processes and socio-economic system of the Bronze Age in Central Asia. The migrations to Central Asia have been staged.

“SHARQ TARONALARI” XALQARO MUSIQA FESTIVALINING IJTIMOIY AHAMIYATI

U.Boliev – *assistent o‘qituvchi*
Samarqand davlat universiteti

Tayanch so‘zlar: tarona, musiqa, festival, madaniyat, Samarqand, tamaddun.

Ключевые слова: музыка, фестиваль, культура, Самарканд, цивилизация.

Key words: music, festival, culture, Samarkand, civilization.

Sharq musiqasi – bugungi kunda nafaqat Sharq, balki G‘arb xalqlarini ham o‘ziga maftun etib kelmoqda. Ayniqsa, keyingi yillarda O‘zbekiston dunyo miqyosida o‘zining yuksak salohiyatini tobora namoyon etib bormoqda. Birgina musiqa sohasini olaylik, mamlakatimizda bu borada «Sharq taronalari», «Zamonaviy musiqa», «Simfonik musiqa», «Milliy cholg‘ular» kabi nufuzli xalqaro festivallarning o‘tkazilishi, qator teatr va musiqa koshonalarining yuzaga kelishi ma‘naviy islohotlar yo‘lidagi ulkan odimlar ekanligidan dalolatdir. Go‘zal va navqiron Samarqand shahrida o‘tkazilib kelinayotgan, dunyo musiqasida ahamiyatga molik “Sharq taronalari” Xalqaro musiqa festivalining o‘tkazilishi borgan sari an‘anaga aylanib kelmoqda. Bugun bu tushuncha yangi ma‘no kasb etib, jahon musiqa jarayonida Sharq mumtoz kuy va ashularining betakror o‘rni mavjudligini anglatadi. Sharq taronalari musiqa festivalini yurtimizning go‘zal shaharlaridan bo‘lmish Samarqand shahrida o‘tkazilishi ham bejiz emas. Chunki, Samarqand dunyo tamaddunining beshiklaridan hisoblanib, uning iqlimi, ham geografik joylashuvi ham, qolaversa, tarixiy shon-shuhrati ham bu maskanda bu kabi nufuzli anjumanlarni o‘tkazishga juda qulaydir.

Umuman olganda jahonda har yili minglab Xalqaro festival-tanlov-shoular o‘tkazilib, shulardan 220 dan ortig‘i bevosita san‘atga aloqadordir. Xususan, dunyoda “Abadiy bahor” (rok festivali), “Osiyo-Tinchokeani qo‘shiq” telefestivali (1989-yildan e‘tiboran o‘tkazilib kelinadi va unda 14 dan ortiq davlat vakillari ishtirok etishgan), “Stokgolm qadimiy qo‘shiq” fesivali (Shvesiya) (2002 yildan buyon o‘tkazilib musiqashunos Peter Pontvik tashabbusi bilan 4 kundan bir haftaga qadar davom etadi) o‘tkaziladi. Fransiya, Niderlandiya, Turkiya va boshqa davlatlar vakillari ishtirok etib kelmoqda. Bundan tashqari, ko‘plab davlatlarda xoreografiya va milliy musiqa anjumanlari o‘tkazilib kelinadi. Ushbu anjumanlar bilan yurtimizda o‘tkaziladigan “Sharq taronalari” musiqa festivalini qiyosiy o‘rganadigan bo‘lsak, sanab o‘tilgan festivallarning ko‘pchiligi barqaror va muntazam o‘tkazilmaydi. Ko‘plab ichki siyosiy o‘zgarishlar festivallarni doimiy o‘tkazilishiga to‘sqinlik qilmoqda. Bundan tashqari, bizning mehmondo‘st xalqimiz

yurtimizga tashrif buyuruvchi festival ishtirokchilarini yo‘l xarajatlari hamda mehmonxonada yashashlari hamda sayohatlari uchun alohida mablag‘ ajratilib, festival o‘tkazilishi kunlarida hay‘at a‘zolari va festival qatnashchilariga mehmonxona restoranlari tekin xizmat ko‘rsatishdiki, bunday imtiyozlarni kamdan-kam davlatlarga amalga oshirish imkoniyatiga egadir.

Sharq xalqlarining betakror milliy musiqasi va qo‘shiq-larini keng miqyosda targ‘ib etish, yosh avlodga san‘atga, ayniqsa, milliy musiqa san‘atiga bo‘lgan muhabbatni tarbiyalash, xalqlar o‘rtasidagi do‘stlikni mustahkamlash hamda ijodiy hamkorlik va madaniy - ma‘naviy aloqalar doirasini kengaytirish – “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivalining tayanch maqsadlaridan biri hisoblanadi. Eng muhimi, festival orqali turli xalqlar musiqiy an‘analarining bir-biriga ta‘sir o‘tkazishi, boyitishi amalda isbotlanmoqda. Mazkur “Sharq taronalari” musiqa festivali Markaziy Osiyoda o‘tkazilayotgan eng yirik festivallardan biri hisoblanadi. Nufuzli festivalning Samarqand shahrida o‘tkazilishi bir qator ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma‘rifiy sabablarga egadir. Chunonchi, Samarqand azaldan nafaqat Sharq balki jahon ahamiyatiga molik siyosiy markaz bo‘lib xizmat qilgan qolaversa. U asrlar davomida din va ma‘rifat o‘choqlaridan biri sifatida e‘tirof etilib kelingan. Yurtimiz, Samarqand shahri timsolida yildan-yilga turizm shaharga aylanib borar ekan, bu yerga tashrif buyurgan xorijliklar safining tobora kengayib borayotganligi ham so‘zimizning isbotidir. Bir so‘z bilan aytganda festival bizga nafaqat musiqa va madaniyat targ‘iboti uchun balki, milliy mentalitetimizni Xalqaro maydonda ko‘z-ko‘z qilish, u bilan faxrlanish hamda dunyo e‘tiborini yurtimizga qaratish imkoniyatini beradi. Zero, festival yurtimizdagi tinchlik, hamjihatlik va barqarorlikning garovi sifatida ham baralla namoyish etilib, tobora e‘tibor va e‘tiroflarga sazovor bo‘lmoqda.

Anjuman haqidagi ta‘sirotlarni Janubiy Koreyalik Kvan Ox Sang: “Sharq taronalari” qadim Samarqand shahrida ajib guldasta shaklida jamlangan”, - deya e‘tirof etgan bo‘lsa, Hindistonlik Shaynu Xaruma bu festivalni “Xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik va o‘zaro hamjihatlik g‘oyalarning vositachisi” deya baholagan edi. Ushbu Xalqaro musiqiy festival, Sharq xalqlarining emas, balki jahonning ko‘plab

mamlakatlarida ijod qilayotgan ajoyib san'atkorlarini birlashtirgan o'ziga hos musiqiy tadbir bo'lgan. Haqiqatdan ham, hozirgacha bo'lib o'tgan "Sharq taronalari" festivallari buning yorqin daliliga aylandi.

Aytish kerakki, bunday ulkan Xalqaro tadbirning o'tishi yoshlarga milliy musiqamizni, shuningdek qo'shiqchilimizni yanada takomillashtirish, undagi an'analarni o'rganish va yoshlar o'rtasida keng kulamda targ'ibot qilishdek muhim vazifani yuklayotgani aniq. IX-Sharq taronalari Xalqaro musiqa festivali ham o'ziga xos va qiziqarli tarzda o'tdi. Festivalning bosh sovrini – Gran-pri Hindiston Respublikasi vakillariga nasib etdi. Burkina Faso va afg'onistonlik ishtirokchilar birinchi, Xitoy, Buyuk Britaniya va Janubiy Koreya san'atkorlari ikkinchi o'ringa sazovor bo'ldilar. O'zbekistonlik sozanda Abror Zufarov, Yaponiyaning "Chikuyusha" guruhi hamda avstriyalik san'atkorlar esa uchinchi o'ringa loyiq topildi.

Mazkur nufuzli musiqiy anjumaning o'ziga xosligi shundaki, u o'zaro bog'liq bo'lgan bir nechta tadbirlarni o'z ichiga qamrab oladi. Shulardan biri "Eng yaxshi milliy qo'shiq ijrosi uchun" nomli xonamdalarining tanlovidir. Unda ijrochi san'atkorlar Registon maydonidagi me'moriy yodgorliklar majmuasi Sherdor, Ulug'bek va Tillakori madrasalari tutashgan maydonda qad ko'targan katta ochiq sahnada tinglovchilarga o'z mahoratini namoyish etishadi. Mohir xonanda va jo'mnavoz sozandalarning tanlov dasturiga kiritilgan qo'shiq ijrolarini Tanlovda xalqaro hay'at a'zolari tomonidan xonanda va ijrochilar quyida chiqish mezonlar bo'yicha baholanadi: [1]

- An'anaviy (milliy) xususiyatga mos kelishi;
- Yuqori kasbiy ijro darajasi;
- Cholg'u va aytim ijrosi uyg'unligi; dastur murakabligi;
- Ovoz va ijro mutanosibligi; talqin etish noyobligi kabi mezonlar asosida saralab boriladi.

Xalqaro musiqiy festival faqatgina ijrochilik mahorati ko'rigi bilan chegaralanib qolmay, har galgi anjumai doirasida o'tkaziladigan xalqaro ilmiy-ijodiy konferen-

siyani ham o'z ichiga qamrab oladi. Festival doirasida Xalqaro ilmiy anjuman o'tkazib kelinishi ham an'anaga aylangan. U alohida dastur asosida o'tkazilib, odatda Sharq xalqlari musiqa san'atining muhim va dolzarb masalalariga bag'ishlangan mavzular yuzasidan ma'ruzalar tinglanadi. va davra suhbatiga ulanib boradi. Ushbu festival va uning tarkibiy qismi bo'lgan konferensiya jahon xalqlari ma'naviyatini boyitishga ulkan hissa qo'shib, dunyoning mashhur olimlari o'zlarining ilmiy ma'ruzalari bilan ishtirok etib kelmokdalar. "Sharq xalqlari musiqasi san'atining mushtarakligi" shiori ostida ilk bor o'tkazilgan ilmiy-anjuman barchada katta qiziqish o'yg'otgan. O'tkazib kelanayotgan anjumanlar musiqaga oid dolzarb mavzulardan iborat bo'lib, quyidagilardan tashkil topgan: "Sharq cholg'ulari", "An'anaviy musiqa xalqaro qo'mitasining "Maqomat" guruhining anjumani", "Sharq xalqlarining mumtoz musiqa san'ati", "Shashmaqom an'analari va zamonaviyligi", "Musiqa festivallar boshqaruvi", "Sharq musiqa madaniyatining jahon tamaddunidagi o'rni" va "Sharq musiqa an'analari zamonaviy madaniyat tizimida" nomli mavzularida ilmiy-amaliy konferensiyalar bo'lib o'tdi. "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali doimiy barqarorligi bilan o'z nufuzini oshirib bormoqda va u jahonning eng buyuk salohiyatli san'at anjumaniga aylanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, "Sharq taronalari" Xalqaro musiqa festivali – musiqa, qo'shiq, raqs, milliy liboslar namoyishi va betakror milliy go'zallik bayramidir. Unda har bir janr hayratlanarli darajadagi musiqa, poetik fantaziya jihatidan rang-barang xislatlarni kashf etadi. Xalqaro tadbir ishtirokchilariga nafaqat shon-shuhrat keltirdi, balki ularning kelajakdagi faoliyatida yanada ko'proq ijodiy izlanishlarga turtki bo'ladi. Darhaqiqat, ko'hna Samarqandda o'tkazilib borilayotgan «Sharq taronalari» musiqa festivalining nufuzi yildan-yilga oshib, u endilikda turli millat va elatlararo madaniy ko'priklarni vazifasini o'tab kelmoqda [4].

Adabiyotlar

1. Fayzullayev E. Bo'lajak musiqa o'qituvchilari ba'diyy didini shakllantirishda o'zbek mumtoz musiqasi imkoniyatlaridan foydalanish. –Toshkent: Fan va texnologiyalar markazi bosmaxonasi, 2008.
2. Qudratov I. Talabalarni xalq qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalash. –Toshkent: «Fan», 2009.
3. Nosirova H. Men o'zbek qiziman. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1968.
4. Hasanov A. Musiqa va tarbiya. –Toshkent: «O'qituvchi», 1993.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada Sharq taronalari Xalqaro musiqa festivali tarixi, ahamiyati va uning o'ziga xos xususiyatlari xususida keng qamrovli fikrlar taqdim etilib, shuningdek, bu kabi festivallarning ijtimoiy ahamiyati haqida ham xulosalar bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье речь идёт об истории международного музыкального фестиваля «Шарк тароналари», а также его развитии и социальном значении в музыкальном творчестве.

SUMMARY

The article is devoted to the history of the international music festival "Shark taronalari", its development and social importance in music creative activity.

АЙДОС БИЙ КИМ БОЛҒАН, ЯМАСА ХАЛЫҚ АҢЫЗ ӘПСАНАЛАРЫНЫҢ ТАРИЙХЫЙ ШЫНЛЫҚҚА ҚАТНАСЫ МӘСЕЛЕСИ ХАҚЫНДА ГЕЙПАРА ОЙЛАР

М.Пазылов – тармақларды басқаруы бөлімі тармақ администраторы
Әжанияз атындағы Нөкіс мәмлекетлік педагогикалық институты

Таянч сўзлар: рух, табаррук, ибрат, бегунох, бебахо, мерос, афсона, хавас, бий, жафокаш, дабаба, мурувват.

Ключевые слова: дух, благодатный (ценный), пример, невинный, безценный, наследство, легенда, желание, бий (глава мелко родового подразделения), страдатель, торжество, взаимное уважение.

Key words: spirit, valuable, idol (model), innocent, priceless, inheritance, legend, wish biy (head of the tribe), sufferer, solemnity, reciprocal respect.

Өткенлердин руўхын шад етиў, олардың теберик атларын мэнгилестириў, егерде, ол әпиўайы инсан болып жасаған болса да, оны бүгинги хэм кейинги әўлад үәкиллерине танытыў хәр биримиздин уллы ўазыйп-амыз болып есапланады. Себеби, олардың басып өткен машақатлы өмир жоллары, ғәрезсизлик, еркинлик деген сөзлерди тек ғана тили менен айтып ал, әмелде болса хорлық, ашаршылық хэм жән-жақлама келетуғын душпанлардың қысылыспасына ушырап, бийгүнә набыт болған хәр бир ата-бабамыздың өмир жолы

бүгинги күнде ибрат аларлық үлкен мектеп болып есапланады. «Өтмишсиз келешек жоқ» дейди халқымыз. Шынында да ата-бабаларымыздың бизге қалдырған бийбаха ақыл-нәсиятысыз бүгинги күн турмысымызды көз алдымызға келтире алмаймыз, олардың ақыл нәсиятысы әпиўайы ғана жаңадан туўылған нәрестелеримизди де шомылдыра алмаймыз, десек асыра айтқан болмаймыз.

«Бизин хәўес етсе арзытуғын уллы тарыйхымыз бар. Хәўес етсе арзытуғын уллы ата - бабаларымыз